



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-dekabr

729-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 3-dekabrda PQ-417-son qarori ijrosi haqida"gi 598-6-0-Q/24-son qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 3-dekabrda PQ-417-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 13-dekabrda 598-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-dekabrda 598-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta'minlash uchun qabul qilinsin.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-dekabrda PQ-417-son qarori bilan:
2025-yil 1-yanvardan boshlab ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni taklif etishning quyidagi yo'nalishlarini nazarda tutuvchi ochiq va shaffof Ishlab chiqaruvchilar ekotizimi joriy qilinganligi:
hududlar va tovarlar kesimida ishlab chiqaruvchilar to'g'risidagi sanoat xaritasini ishlab chiqish;
davlat buyurtmachilari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'zaro kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va ofteyk shartnomalar tuzish imkoniyatini yaratish;
"B2B" va "B2C" formatida "marketpleys" shaklidagi erkin savdo maydonchasini tashkil etish;
davlat buyurtmachilari tomonidan ustuvor ravishda Ishlab chiqaruvchilar ekotizimiga kiritilgan ishlab chiqaruvchilardan tovarlarni xarid qilish, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalar doirasida xarid qilish bo'yicha alohida tartib belgilangan hollar bundan mustasno;
Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ishlab chiqaruvchilar ekotizimining to'liq joriy etilishi va uning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash uchun mas'ul tashkilot ekanligi belgilab qo'yilganligi;
belgilanishicha:
davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarning ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida "davlat xaridlari – biznesga ko'mak" tamoyili asosida "tadbirkorbay" ishlash tizimi yo'lga qo'yilishi;
iqtisodiyot va moliya, g'aznachilik organlari xodimlari hokim yordamchilari bilan birgalikda har bir ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkor bilan manzilli ishlab, ularga davlat xaridlarida faol ishtirok etishga ko'maklashishi;
ishlab chiqaruvchilar davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalidan ro'yxatdan o'tkazilishi, shuningdek, ularning ofertalari bir vaqtning o'zida barcha davlat xaridlari elektron tizimlarida joylashtirilishi;
elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion savdolarida ishlab chiqaruvchilarga ular tomonidan yetkazib berilgan tovarlar miqdoriga mutanosib ravishda haq to'lab berilishi;
Iqtisodiyot va moliya vazirligining yuqori va o'rta barqarorlik reytingi toifalariga mansub tadbirkorlik subyektlari hisoblangan ishlab chiqaruvchilarga barcha davlat xaridlari elektron tizimlarida:

davlat xaridlarida ishtirok etish uchun vositachilik yig‘imi miqdoriga nisbatan 50 foiz chegirma taqdim etish;

xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishda qo‘shimcha zakalat kiritmaslik to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga ko‘ra 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari davlat xaridlarini amalga oshirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan shartnomalar, shuningdek, import ulushini keskin kamaytirib borish kabi mezonlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 martdagi PF–49-son Farmoniga muvofiq belgilanishi;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va yirik davlat korxonalari tomonidan har yarim yil yakuniga ko‘ra amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan, import va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlarning ulushini keskin kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga hisobot berib borish tizimi yo‘lga qo‘yilishi;

davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari ushbu sohada aniqlagan huquqbuzarliklar, shuningdek, xato va kamchiliklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etgan holda doimiy ochiq qabul borilishi;

xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini amalga oshirish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlari jarayonidagi faoliyatini elektron axborot tizimlaridan olingan ma‘lumotlar asosida maxsus axborot portalida inson omilisiz baholab boruvchi skoring tizimi joriy etilishi;

davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida xorijiy davlatlardagi davlat xaridlarida ishtirok etish bo‘yicha o‘quv materiallari joylashtiriladi va har chorakda yangilab borilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat xaridlari sohasidagi amaliy ishlar samaradorligini hamda mavjud imkoniyatlarni doimiy muhokama qilib borish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida tegishli tarmoq uyushmalaridagi faol ishlab chiqaruvchilardan iborat jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi “Xarid islohotchilari guruhi”ni tashkil etish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilganligi;

davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar samaradorligini o‘rganish va sohada mavjud qo‘shimcha imkoniyatlarni amaliyotga joriy qilish hamda bu borada tegishli takliflarni tayyorlash mazkur guruhning asosiy vazifalaridan biri etib belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchi korxonalarining davlat xaridlaridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan targ‘ibot ishlari muntazam ravishda tashkil etilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov